


IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **72,3 %** ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida **6 646** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 2 453 ta, sanoat tarmog'ida 1 003 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 796 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 672 ta, axborot va aloqada 330 ta, qurilish sohasida 317 tani tashkil etilgan.

Korxonalar soni, tarmoqlar kesimida



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,3 foizi (2023-yil yanvar-dekabrda 72,3 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 23 694,7 mlrd soʻmni (sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmining 51,3 foizi va faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4 733 tani tashkil etdi);



54 098,7 mlrd soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari umumiy hajmining 94,2 foizi) faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 261 tani tashkil etdi;



15 792,6 mlrd soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirilib (umumiy investitsiyalar hajmining 53,3 foizini tashkil etdi);



11 759,1 mlrd soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 83,9 foizi) (qurilish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 034 tani tashkil etdi);



avtomobil transporti yuk aylanmasining hajmi 1 501,4 mln. tonna km. tashkil qilib 84,6 foizi, umumiy yoʻlovchi aylanmasi 15 685,1 mln yoʻlovchi km. tashkil qilib 96,5 foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga toʻgʻri kelmoqda (tashish va saqlash sohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 909 tani tashkil etmoqda)




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,3 foizi yoki 31 729,7 mlrd soʻm, xizmatlar umumiy hajmining 66,0 foizi yoki 38 853,7 mlrd. soʻmni tashkil qildi. Savdo ohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 13 559 ta.




393,2 mln AQSH dollari miqdorida eksport va (eksport hajmining 45,1 foizi) 852,6 mln AQSH dollari miqdorida import (import hajmining 39,6 foizi) operatsiyalari amalga oshirildi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd soʻm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	54 098,7	94,2
Sanoat	23 694,7	51,3
Qurilish	11 759,1	83,9
Chakana savdo	31 729,7	88,3
Yuk tashish, mln tn.	55,8	86,7
Yoʻlovchi tashish, mln kishi	453,2	93,1
Eksport, mln AQSH doll.	393,2	45,1
Import, mln. AQSH doll.	852,6	39,6

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2025-yilning 1-yanvar holatiga 56 322 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (55 029 ta) 102,3 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar ro'yxatdan o'tganlarning ulushida savdo (40,6 %), sanoat (16,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,6 %), qurilish (7,0 %), tashish va saqlash (2,6 %), axborot va aloqa (2,1 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (2,0 %) sohalariga to'g'ri kelmoqda.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2019-2024-yillar yanvar-dekabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati





2024-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi

Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (4 456,1 mlrd so'm), Urgut (3 394,7 mlrd so'm), Jomboy (1 867,8 mlrd so'm), Samarqand (2 014,7 mlrd so'm), Toyloq (1 505,2 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Paxtachi (153,7 mlrd so'm) va Qo'shrabot tumanlarida (189,6 mlrd so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




■ hajm, mlrd so'm

2019-2024-yillar yanvar-dekabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Samarqand shahri (9 670,7 mlrd so'm), Urgut (3 464,2 mlrd so'm) va Samarqand (2 896,5 mlrd so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2019-2024-yillar yanvar-dekabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Oqdaryo tumani (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (85,9 %), Qo'shrabot (84,9 %), Narpay (84,3 %), Kattaqo'rg'on (84,2 %) va Jomboy (81,9 %) tumanlariga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkich Samarqand shahriga (49,6 %) to'g'ri keladi.